Направления обеспечения конкурентоспособности во внешнеэкономических связях.....	1005
Ахмедов Икром Акрамович	
O'zbekistonda natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish mexanizmini rivojlantirish.....	1019
Primova Nigora Ikrom qizi	
Kichik biznes korxonalarida B2B bozorini tizimli tashkil etishning uslubiy jihatlari.....	1026
Zakirova Gulnoza Qudratovna	
Current Trends in Agrotourism in Uzbekistan: Demand, Needs, and Motives of Agritourists	1030
Iroda Abdieva Gayrat kizi	



Современное состояние достойного труда специалистов транспорта в условиях цифровизации.....	1035
Абдуллаева Нигора Шамсиддиновна	
Обоснование методов оценки совершенствования конкурентоспособности предприятий легкой промышленности	1039
Тухтасинова Мухайё Мирзасултоновна	
Проблемные аспекты трансформации финансовой отчетности бизнеса юридических лиц	1045
Шин Инесса Олеговна	
Cross-Cultural Management is a Separate Field of Science and Discipline.....	1051
Umarova Zulaykho, Rakhmanova Zilola	
Tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etish tahlili.....	1054
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni	1058
Jo'rayev Ilhomjon Kamolidinovich	
Iqtisodiy inqiroz davrida kredit xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy modellari....	1062
Kurbonov Rustam Radjabovich	
Raqamli transformatsiya konsepsiyalari va uning ahamiyati.....	1067
Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari	1074
Xalilova Shoxsanam G'ayrat qizi	
"EIZ" hududida soliq va bojxona rejimlari uchun imtiyozlarni tahlil qilish	1079
Xusanov Durbek Nishonovich, Djurayeva Iroda Bahrom qizi	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini lizing asosida moliyalashtirish istiqbollari.....	1083
Aliqulov Mehmonali Salahiddin o'g'li	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda sun'iy texnologiyalarning o'rni	1088
Xonova Nodira Fazliddinovna	
O'zbekistonning investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish yo'llari.....	1093
Sotimov Yunusbek Turg'unboy o'g'li	
"Yashil" sanoat siyosatini yuritish zaruriyati: bozor nuqsonlaridan milliy xavfsizlikkacha.....	1198
Muqimov Sherali Axmadali o'g'li	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatining hozirgi holati tahlili va rivojlantirish istiqbollari.....	1103
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
Improving the Methodology of Econometric Analysis of the Efficiency of Financial Activity of Agricultural Agroclusters of Uzbekistan.....	1108
Ochilov Ilhom Sayitkulovich	
O'zbekistonda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va "Uglerod neytralligiga erishish" strategiyalarining ahamiyati	1116
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li, Bazarov Shodi Abdirahmonovich	
Oziq-ovqat mahsulotlari brend qiymatini oshirishda marketing strategiyalari.....	1123
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системе Республики Узбекистан	1129
Рузибоева Нилуфар Тулкин кизи	
Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun mintaqaviy siyosat vositalarining xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1135
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mintaqa korxonalarining rivojlanish potensialini shakllantirishda innovatsion marketingning o'rni va mohiyati	1142
Axmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tokomillashtirish yo'llari.....	1146
Samandarova Dilfuza Mansurovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari: mavjud muammolar va yechimlar	1153
Fatilloev Farrux Farhod o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'iga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlili	1158
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish yo'llari ("Agrobank" ATB misolida).....	1167
Yusufov Xurshidjon Sharifovich	
Namangan viloyatida don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti.....	1172
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	



O'zbekiston Respublikasi va xorijda tog' turizmini rivojlantirish omillarini qiyosiy baholash	1177
Mavlanov G'olibjon Muhammad o'g'li	
Improving The Effective Use Of Local Taxes And Levies In Tashkent City	1182
Shahzad Zokhidov	
Совершенствование методологии механизмов налогообложения ресурсного налога	1186
Мухиддинов Талат Шайдулло угли	
Tadbirkorlik faoliyatida investitsiya muhitining xususiyatlari va chet el kapitalining jozibadorligi.....	1189
I. M. Kamoliddinov, To'khtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Kichik biznes tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish xususiyatlari.....	1194
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
Inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish.....	1199
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tishning rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1203
Ahrorov Farhod Baxriddinovich	
Korxonalarda uzumchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda strategik boshqarishda mintaqaviy klaster modellashirishdan foydalanish	1208
Muhitdinov Asror Akobirovich	
Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari	1213
Djumayev Zayniddin Axmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari	1219
Tursunov Nozimjon Nosirovich	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1223
Saida Yuldasheva	
The Contribution of Ecotourism in Developing Gdp in Uzbekistan	1227
Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Husanboy Bahromjon o'g'li, Xolyigitov Umidjon Alijon o'g'li	
Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o'rni.....	1231
Abduraxmanova Ziyoda Abdullayevna	
O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi va undagi asosiy o'zgarishlar tahlili.....	1237
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
Tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va rivojlantirish yo'llari.....	1245
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
Правовые основы маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан	1250
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	
O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hisobiga budjet daromadlari barqarorligini baholash amaliyoti.....	1254
Ikramov Ravshan Amanbayevich	



MEHMONXONALAR FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARINI OSHIRISHDA TURIZMNING O'RNINI



UDK: 336.640.41:658.14(575.1)

Abduraxmanova Ziyoda Abdullayevna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o'rnini o'rganishda turli iqtisodchi olimlarning ilmiy fikrlari va mulohazalari o'rganilgan. Milliy amaliyotda mehmonxonalar faoliyati, turizm sohasidagi ko'rsatkichlar, mehmonxonada faoliyatidagi turli moliyaviy ko'rsatkichlar, mehmonxonalarni moliyalashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Olib borilgan tahlillar asosida xulosalar va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: mehmonxonada, mehmonxonada biznesi, mehmonxonada moliyasi, turizm, moliyaviy ko'rsatkichlar, daromad, foyda, xarajat.

Abstract: In studying the importance of tourism in increasing the opportunities of financing the activities of hotels, the scientific opinions and approaches of various economists are learnt. In the national practice, activities of hotels, indicators in the field of tourism, various financial indicators of hotel activities, opportunities of hotel financing are analyzed. Conclusions and proposals are formed based on the conducted analyses.

Key words: hotel, hotel business, hotel finance, tourism, financial indicators, income, profit, cost.

Аннотация: При изучении значения туризма в увеличении возможностей финансирования деятельности гостиниц изучаются научные мнения и подходы различных экономистов. В отечественной практике анализируются деятельность гостиниц, показатели в сфере туризма, различные финансовые показатели гостиничной деятельности, возможности гостиничного финансирования. На основе проведенного анализа формируются выводы и предложения.

Ключевые слова: гостиница, гостиничный бизнес, гостиничные финансы, туризм, финансовые показатели, доход, прибыль, себестоимость.

KIRISH

Mehmonxonada biznesini moliyalashtirish mexanizmlarining samarali yo'lga qo'yilishida mamlakatdagi turizmning rivojlanish darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanishning kuchli vositasi, shuningdek, u muayyan hudud qiyofasini yaratish, mazkur hududni iqtisodiy rivojlantirishda mehmonxonalarning o'rnini oshirishga xizmat qiladi. Turizm va mehmonxonada xo'jaligi bir sohaning tarkibiy qismlaridir. Mehmonxonada ehtiyojning oshib borishi bevosita turizmning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Jahon amaliyotidan ma'lumki, turizmni rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga, kam taraqqiy etgan hududlarning rivojlanishiga, aholi bandligining oshishiga, turmush madaniyatining yuksalishiga olib keladi. Turizm mamlakatda rivojlansa, mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy hayoti ham yuksaladi. Shu tufayli ko'pgina mamlakatlar turistik markazlarga aylangan. Bunday davlatlar iqtisodiyotining rivojlanishi asosan turizm hisobidan shakllanadi va uning ajralmas qismi bo'lgan mehmonxonada xo'jaliklari tizimi ham tarmoq sifatida shakllanadi. Shu boisdan mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o'rnini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatda mehmonxonada biznesini rivojlantirish va uni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli qator iqtisodchilar tomonidan masalalar yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan. N.I.Kabushkin va G.A.Bondarenko^[1] ta'kidlashicha, insonning biron joyga borishi u yerda mehmonxonada bor-yo'qligiga bog'liq emas, balki dam olish, sport bilan shug'ullanish, davolanish, cho'milish kabi sabablar bilan ham borishi mumkin. Odamlar o'zlarining mehnat ta'tili vaqtida biron joyga borishini mo'ljallagan



bo'lsa, oldin o'sha joyni, hududni, davlatni ko'rishni rejalashtiradi. Faqat bundan keyingina qanday mehmonxonada joylashishi haqida o'ylaydi. Ammo bunday ketma-ketlik hamma vaqt ham amalga oshavermaydi. Tanlov boshqa tartibda ham bo'lishi mumkin, inson faqat ma'lum mehmonxonaga xizmatlaridan foydalanmochi bo'lsa, u oldin mehmonxonani tanlashi ham mumkin. Shu tufayli mehmonxonalarning reklamasi xalqaro miqyosda ham keng tashkil qilinishi lozim.

S.D.Ilenkova va boshqalar fikricha, "har bir mehmon faqat o'ziga ko'rsatiladigan xizmat jarayoni bilan cheklanib qolmaydi. Yurish-turish va yashash qoidalariga ko'ra, u boshqa mehmonlarga ham ko'rsatilayotgan xizmatlardan mamnun bo'lish lozim" [2]. Demak, mehmonxonalar daromadini oshirishda mazkur jihatlarga e'tibor qaratish lozim.

Bir qator tadqiqotchilarning fikricha, "mehmonxonaga sanoatidagi tranzaksiyalar boshqa sohalardagi operatsiyalardan farq qiladi, chunki mehmonxonaga sohasidagi birlashishlar va qo'shib olishlar amaliyotlarini o'tkazgan kompaniyalar qo'shilishdan keyin ijobiy natijalarga erishgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ichki bitimlar va konglomerat sotib olish mehmonxonaga sanoatida eng keng tarqalgan bitimlardir" [3]. Mehmonxonalar biznesida ularni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish hamda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida birlashishlar va qo'shib olishlar amaliyotlari tez-tez qo'llanilishini qayd etish lozim.

F.Sardo va boshqalar tomonidan olib borilgan izlanishlarda "kichik va o'rta biznes sifatida faoliyat ko'rsatadigan mehmonxonalarning rentabelligi ularning tajribasi, malakasi, xodimlar va menejerlarning bilim darajasi, daromadlarning o'zgaruvchanligi va kapital tuzilmasi kabi bir qancha omillarga bog'liq" [4], ekanligini ta'kidlagan.

Mehmonxonaga faoliyatida bir qator ko'rsatkichlarni alohida ko'rib chiqish va mazkur ko'rsatkichlarni turizm samaradorligini ifodalash uchun qo'llash mumkin. Bular tarkibiga quyidagilar kiritilgan:

- turfirmalar mehnat unumdorligi;
- turfirmalar xarajatlari samaradorligi;
- turfirmalar aktivlari samaradorligi;
- turfirmalar o'z mablag'lari samaradorligi;
- turfirmalar asosiy vositalari samaradorligi [5].

"Xarajatlar hisobini yuritish, shuningdek, operatsion koeffitsiyentlar mehmonxonaga sanoati uchun yaxshi barometrlar hisoblanadi. Mazkur tarmoqda kompaniyaning operatsion ko'rsatkichlarini tahlil qilish diagnostika vositasidir. Mazkur koeffitsiyentlar ko'pincha tegishli tashkilotlar tomonidan e'lon qilinadigan savdo sohasidagi shunga o'xshash koeffitsiyentlarga solishtiriladi" [6].

X.M.Mamatqulovning e'tirof etishicha, mehmonxonaga industriyasiga hozirda ishlab chiqarish korxonasi, servis muassasi va tashkiloti sifatida qaraydi [7].

Yuqoridagi tadqiqotchilar fikrini inobatga olgan holda ta'kidlash mumkinki, mehmonxonaga sohasini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini, jumladan, turizm va mehmonxonaga sohasini rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Qolaversa, mehmonxonaga moliyasini samarali tashkil etish mazkur sohani jadal rivojlantirishga yordam beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o'rnini o'rganishda qiyoslash, kuzatish, statistik tahlil, analiz, sintez kabi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mehmonxonalar faoliyatida moliyaviy ko'rsatkichlarga ham e'tibor qaratish zarur. Mazkur ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo'llari nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ham ega (1-jadval). Birinchidan, barcha ko'rsatkichlar mehmonxonaga xo'jaliklarining moliyaviy hisobotlarida ifoda etiladi. Demak, ushbu ma'lumotlar ularning faoliyat natijasi bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishga asos bo'ladi. Ikkinchidan, ushbu ko'rsatkichlarning miqdori, ularning faoliyati uchun muhim bo'lgan jihatlarning foydaliligini ko'rsatadi. Shuningdek, mazkur tizimda umumiy rentabellik ko'rsatkichlari bilan birga, mehmonxonaga xo'jaliklarining ayrim qirralarini ifoda etadigan ko'rsatkichlar ham mavjud. Masalan, o'z mablag'lari rentabelligi mehmonxonaga xo'jaliklarining faqat bitta jihatini, ya'ni o'z mablag'lari foydaliligi bilan bog'liq rentabellik darajasini ifoda etadi. Mazkur rentabellik ko'rsatkichlari tizimida mehmonxonaga xo'jaliklari xarajatlari rentabelligi ham keltirilmoqda. Ushbu ko'rsatkich shu subyektning bir so'mlik xarajatlari qancha sof foyda keltirayotganligini ifoda etadi. Bu xarajatlarning qaytimini belgilaydi. Agar uni yillar bo'yicha solishtirilsa, xarajatlar samaradorligi bo'yicha o'zgarish tendensiyasiga baho berish mumkin. Xuddi shunday tahlilni tizimdagi boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha, xususan, bitta xodimga to'g'ri keladigan sof foyda summasi bo'yicha ham qilish mumkin.

1-jadval: Mehmonxonada xo'jaliklarida rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llari^[8]

T/r	Ko'rsatkichning nomi	Hisoblash yo'llari
1.	Mehmonxonada xo'jaliklarida umumiy (sotish) rentabelligi (R_{us})	$R_{us} = \frac{Sf}{Q}$ Sf – sof foyda summasi, Q – mehmonxonada xo'jaliklarida mahsulotlar va xizmatlarni sotishdan sof tushum.
2.	Mehmonxonada xo'jaliklarida xarajatlar rentabelligi (R_{xa})	$R_{xa} = \frac{Sf}{Xa}$ Xa – mehmonxonada xo'jaliklarining umumiy xarajatlari
3.	Mehmonxonada xo'jaliklarida aktivlar rentabelligi (R_{ak})	$R_{ak} = \frac{Sf}{Ak}$ Ak – mehmonxonada xo'jaliklari aktivlarning o'rtachi yillik qiymati.
4.	Mehmonxonada xo'jaliklarida o'z mablag'lari rentabelligi (R_{om})	$R_{om} = \frac{Sf}{Om}$ Om – mehmonxonada xo'jaliklari o'z mablag'larining o'rtachi yillik qiymati.
5.	Mehmonxonada xo'jaliklarida mehnat resurslari, ya'ni bitta xodimga to'g'ri keladigan sof foyda miqdori (X_{sf})	$R_{xs} = \frac{Sf}{Xs}$ Xs – mehmonxonada xo'jaliklarida xodimlarning o'rtacha soni.

Hozirda barcha shahar va turistik obyektga ega bo'lgan qishloq hududlarida mehmonxonalarining qurilishi ko'paymoqda. Bir qator sabablar natijasida ehtiyoj yildan-yilga oshib bormoqda. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin (1-rasm).

- Aholining yashash darajasi va daromadi oshib borishi tufayli odamlar sayohatga ehtiyoj sezayotganligi;
- Odamlarda mavjud bo'lgan bo'sh vaqtini maroqli o'tkazish ishtiyoqining paydo bo'layotganligi;
- Odamlarning madaniyati, didi va intellektual saviyasining oshayotganligi hamda ularda olamni bilishga bo'lgan ishtiyoqning paydo bo'lishi;
- Aholida harakatlanishi uchun tegishli sharoitlarning vujudga kelganligi, tezyurar poezdlarning joriy qilinishi, har bir oila o'zining shaxsiy yengil mashinasiga ega bo'lishi;
- Xorijiy mamlakatlarga kirish va chiqishning erkinlashtirilganligi, viza rejimining yo'lga qo'yilganligi;
- Dunyoda globallashtirish va integratsion jarayonlarning chuqurlashib borishi va odamlarda bir mamlakatdan ikkinchisiga borish zaruratining paydo bo'lganligi;
- Mamlakatlar iqtisodiyoti, madaniyati va ilmiy sohalaridagi integratsiyalashuv jarayonlarining davom etayotganligi va ular o'rtasida kadrlar malakasini oshirish, tajriba almashish kabi ishlarning jonlanganligi kabilardir


1-rasm: Aholida turizm va mehmonxonada xizmatlariga bo'lgan talabning oshishiga sabab bo'layotgan omillar¹

1 Iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan




Hozirgi paytda ushbu ehtiyojlardan kelib chiqib, har bir hududda mehmonxonalar qurilishi bo'yicha strategik prognoz ko'rsatkichlar bo'lishi lozim. Mehmonxona xizmatlaridan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish ham bugungi kunning muhim talablaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda dunyoda mehmonxona biznesini rivojlantirish, mazkur sohada pul oqimlari aylanmasini oshirishda turizmning roli doimiy ravishda o'sib bormoqda. Mamlakatimizda ham mehmonxonalar sohasini rivojlantirish bevosita turizm bilan bog'liq ekanligini ta'kidlash lozim. Mamlakatimizda oxirgi 2017–2021-yillarda kirish turizmi bilan shug'ullanuvchilar soni 0,7 barobarga kamaydi, 2021-yilda 1881,3 ming kishini tashkil etdi, xorijga sayohat qilgan O'zbekiston fuqarolari soni 2194,8 ming nafarni tashkil etdi (2017-yilga nisbatan 0,4 barobar kam). 2021-yilda mamlakatimizda xizmat ko'rsatuvchilar soni 2162,7 ming kishiga yetdi (2-rasm).



2-rasm: 2017–2021-yillarda O'zbekistonda turizm ko'rsatkichlari, dona ^[9]

O'zbekistonda hududlar kesimida turizm ko'rsatkichlari turlicha shakllanganligi sababli mazkur hududlarda mehmonxona biznesini moliyalashtirish masalalarining joriy holati bir-biridan farq qiladi. Xususan, Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro, Xorazm kabi hududlarda mehmonxonalar va shunga o'xshash obyektlar soni boshqa hududlarga nisbatan ko'p ekanligini qayd etish joiz (3-rasm).




3-rasm: O'zbekistonda hududlar kesimida mehmonxona va shunga o'xshash obyektlar tahlili ^[9]



2021-yil davomida O'zbekiston hududida 848 ta mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish obyektlari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan 94,0 % mehmonxonalar, 1,2 % motellar, 0,4 % pansionatlar va 4,5 % boshqalarga to'g'ri keladi.

Mehmonxonalarning rivojlanishida turistik obyektlar bilan birga tegishli infratuzilmaning ham shakllanganligi muhim ahamiyatga ega. Bunda turistik obyektga va mehmonxonalariga boradigan yo'l infratuzilmasi, kommunal xizmatlarning talab darajasida tashkil qilinganligi, ovqatlanish va savdo shaxobchalarining tashkil qilinganligi kabilarni kiritish mumkin.

Mamlakatimizda davlat tomonidan turizm sohasini rivojlantirish orqali mehmonxonalarning rivojlanishiga hamda ularni moliyalashtirish imkoniyatlarining oshishiga erishishda quyidagi chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilishi muhim hisoblanadi (4-rasm).



4-rasm: Davlat tomonidan turizm sohasini rivojlantirish orqali mehmonxonalarni rivojlantirish hamda ularni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish bo'yicha amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar²

Ushbu omillarning hammasi turizm va mehmonxonalarning rivojlanishi uchun tashkiliy-huquqiy asos bo'lib hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, mehmonxona xo'jaligi va turizmning rivojlanishi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan subyektlar va jarayonlardir. Ularni rivojlantirishga bir yoqlama qarab bo'lmaydi. Shu tufayli turizm va mehmonxona xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha mamlakatimiz va hududlar kesimida yagona dasturning bo'lishi maqsadga muvofiq.

XULOSA

Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o'rnini o'rganish asosida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin.

Birinchidan, xalqaro amaliyotlarda mehmonxona biznesini rivojlantirish va mehmonxona biznesini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizm sohasi muhim o'ringa ega. Shu sababli milliy amaliyotimizda turizmni rivojlantirish orqali ham mehmonxonalarning moliyaviy natijalarini yaxshilashga e'tibor qaratish lozim.

² Iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan



Ikkinchidan, mamlakatimizdagi turizm imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda turistlar nisbatan ko'p tashrif buyuradigan hududlarda xalqaro talablarga javob beradigan mehmonxonalar tizimini shakllantirish lozim.

Uchinchidan, hududlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda hududlarda turizmning turli shakllarini rivojlantirish va bu orqali mehmonxonalarning daromadlarini oshirishni qo'llab-quvvatlash lozim.

To'rtinchidan, davlat tomonidan turizm sohasini rivojlantirish orqali mehmonxonalarni rivojlantirish hamda ularni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Chunki regulyator sifatida davlat tashkilotlari tomonidan sohani rivojlantirish bo'yicha samarali mexanizmlarning yaratilishi mehmonxonalar faoliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кабушкин Н.И., Бондаренко Г.А. Менеджмент гостиниц и ресторанов. – Минск: Новое знание, 2002. – С. 58.
2. Управление качеством: Учебник для вузов / Под ред. С.Д.Ильенковой. – М.: Юнити-Дана, 2004. – С. 78.
3. Fan Zhang, Qu Xiao, Rob Law, Seoki Lee. Mergers and acquisitions in the hotel industry: A comprehensive review. // International Journal of Hospitality Management, Volume 91, October 2020. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0278431919304712>
4. Filipe Sardo, Zélia Serrasqueiro, Helena Alves. On the relationship between intellectual capital and financial performance: A panel data analysis on SME hotels. // International Journal of Hospitality Management, Volume 75, September 2018, Pages 67-74. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S027843191730590X>
5. Pardayev M.Q. va boshqalar. Turfirmalar moliyaviy xo'jalik faoliyati tahlili. Ma'ruzalar kursi. Samarqand, SamISI, 2011.B. 144-145.
6. M.T.Aliyeva. Mehmonxona menejmenti. // Darslik, T., 2007. – 203 b.
7. Mamatkulov X.M. Xizmat ko'rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug'ati.- T.: "IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti, 2010. B.167-168.
8. M.Q.Pardayev. "Turfirmalar moliyaviy xo'jalik faoliyati tahlili". // Ma'ruzalar kursi, Samarqand, SamISI, 2011. - 147-149 b.
9. https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/turizim_28_07_22_uz.pdf - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

